O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi
Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

«SHARQSHUNOSLIK SOHALARINI TADQIQ ETISHNING DOLZARB MASALALARI» MAVZUSIDA YOSH SHARQSHUNOSLARNING AKADEMIK UBAYDULLA KARIMOV NOMIDAGI XIX RESPUBLIKA ILMIY–AMALIY KONFERENSIYASI

TO‘PLAMI

«FAN»
Toshkent – 2024

UO‘K 314.151(575)(08)
KBK 607(543)
Y 83

«Sharqshunoslik sohalarini tadqiq etishning dolzarb masalalari» mavzusida Yosh sharqshunoslarning akademik Ubaydulla Karimov nomidagi XIX respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi to‘plami. – Toshkent: «Fan» nashriyoti, 2024. – 286 b.

Taqrizchilar:
O‘ktambek Sultonov – tarix fanlari doktori, professor.
Sherali Qo‘ldoshev **–** tarix fanlari nomzodi, dotsent.

Tahrir guruhi:
Laziz To‘rayev – tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), Akbar Idiyev, Maftuna Mirzayeva, Sherzod Karimov, Dostonjon Tojiyev, Farrux Kamoliddinov.

Ushbu to‘plamda qadimgi davrdan bugungi kungacha bo‘lgan sharqshunoslik sohasidagi dolzarb masalalar, tarix fani oldida turgan muammolar va ularning yechimlari, tarixshunoslikka oid tadqiqotlar, til, adabiyot hamda manbashunoslik masalalari, Sharq rennesansi davri allomalari ilmiy merosining o‘rganilishi, qadimiy yozma manbalarning muomalaga kiritilishi kabi masalalarga qaratilgan tadqiqotlar o‘rin olgan. To‘plam sharqshunoslar, tarixchilar, adabiyotshunoslar, tadqiqotchilar va keng kitobxonlar ommasi uchun mo‘ljallangan. To‘plam tarkibidan o‘rin olgan maqolalar mualliflarning ilmiy tadqiqot natijalari va shaxsiy ilmiy qarashlarini o‘zida aks ettiradi.

O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti Ilmiy kengashining 2024-yil 3-maydagi 5-sonli majlisi qarori asosida nashrga tavsiya etilgan.

© Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti.
© Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti.
© «Fan» nashriyoti, 2024.

ISBN 978-9910-9030-5-2

MARKAZIY OSIYO RESPUBLIKALARINI FORS KO‘RFAZI ARAB DAVLATLARI BILAN ALOQALARINING QAYTA BOSHLANISHI TARIXIGA NAZAR

KAMOLIDDINOV Farrux Burxoniddin o‘g‘li
O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi
Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti
2-bosqich tayanch doktoranti
ORCID: 0009-0007-8423-7193

A LOOK AT THE HISTORY OF THE RESUMPTION OF RELATIONS BETWEEN THE CENTRAL ASIAN REPUBLICS AND THE ARAB STATES OF THE PERSIAN GULF

KAMOLIDDINOV Farukh
Al-Biruni Institute of Oriental Studies of
Uzbekistan Academy of Scinces,
Doctoral student
ORCID: 0009-0007-8423-7193

Abstract. *In this article, after the independence of the Central Asian republics, the process of restoring the ancient relations with the Arab states of the Persian Gulf and some of the social, economic and political problems that arose during the implementation of these relations are considered, and in the concluding part, a comprehensive solution to these problems is discussed.*

Fors ko‘rfazidagi arab davlatlari va Markaziy Osiyo respublikalari o‘rtasidagi diplomatik munosabatlar tarixi ko‘p asrlik o‘zaro aloqalarga borib taqaladi, ular savdo-sotiq, madaniy almashuvlar va vaqti-vaqti bilan tuzilgan ittifoqlar bilan ajralib turadi. Biroq, zamonaviy xalqaro munosabatlarda tan olingan rasmiy diplomatik aloqalar XX asr oxirlarida, xususan, Sovet Ittifoqi parchalanib, 1990-yillarning boshlarida Markaziy Osiyo respublikalari mustaqil davlat sifatida paydo bo‘lganidan keyin shakllana boshladi.

Bu mintaqalar o‘rtasida diplomatik aloqalar o‘rnatilishiga hissa qo‘shayotgan muhim omillardan dastlabkilaridan biri ularning qadimgi Ipak yo‘li yo‘llari bo‘ylab savdo va madaniy almashinuv tarixidir. Savdogarlar, olimlar va sayohatchilar Arabiston yarim oroli va Markaziy Osiyo o‘rtasidagi ulkan kengliklarni bosib o‘tib, tovarlar, g‘oyalar va texnologiyalar almashinuvini amalga oshirganlar. Ushbu o‘zaro aloqalar, o‘zaro xabardorlik va o‘zaro bog‘liqlikni rivojlantirish orqali diplomatik aloqalarni yanada rivojlantirish uchun zamin zamin yaratdi.

1990-yillar boshida Markaziy Osiyo siyosiy xaritasida yangi mustaqil respublikalar paydo bo‘lganida, jahon miqyosida ushbu mintaqa davlatlarining suverenitetini dastlabkilardan bo‘lib tan olgan davlatlar qatoriga Fors

koʻrfazi arab davlatlari (FKAD) a'zo davlatlar, ya'ni ushbu maqolada muhokama qilingan "arab oltiligi" ya'ni Saudiya Arabistoni, Oʻmon, Kuvayt, Qatar, Bahrayn va Birlashgan Arab Amirliklari davlatlari. Albatta bu ikki mintaqa davlatlari oʻrtasidagi aloqlarining 1991-yil voqealaridan soʻng yana qaytib tiklanishiga bir nechta siyosiy, iqtisodiy va madaniy sabablari bor edi.

Fors koʻrfazidagi arab mamlakatlari XXI asr boshlarida jahon siyosatining eng muhim sub'yektlaridan biri boʻlib qolmoqda, bu butun geosiyosiy, iqtisodiy, mafkuraviy va boshqa omillar bilan izohlanadi.

Birinchidan, Fors koʻrfazidagi arab mamlakatlari 6 ta davlat jahon hamjamiyati tomonidan e'tirof etilgan va xalqaro hamjamiyatga ancha chambarchas integratsiyalashgan. Ushbu mamlakatlar guruhi institutsional jihatdan yaxshi tashkil etilgan va Arab davlatlari ligasi (LAS), Fors koʻrfazi hamkorlik kengashi (GCC), Arab Magʻrib ittifoqi (AMU) kabi jiddiy mintaqaviy tashkilotlarda birlashgan boʻlib, ular bundan tashqari BMT, IHT, OPEK va boshqalar kabi xalqaro tashkilotlar masalalarida yetarlicha kuchli jamoaviy ovozga ega.

Ikkinchidan, ushbu mamlakatlarning aksariyati dunyoning global xavfsizlikka bevosita ta'sir koʻrsatadigan eng nozik mintaqalarida (Yaqin Sharq, Fors koʻrfazi mintaqasi, Shimoliy Afrika) tinchlik va barqarorlikni saqlashda muhim rol oʻynaydi. Ular jahon hamjamiyati boshidan kechirayotgan bir qator dolzarb muammolarni hal qilishda dunyoning yetakchi davlatlarining (AQSh, Gʻarbiy Yevropa, Rossiya, Xitoy) muhim geostrategik hamkorlari sifatida ishtirok etmoqda.

Uchinchidan, Fors koʻrfazi arab davlatlari jahon iqtisodiyotida muhim oʻrin tutadi. Iqtisodiyoti bir butun boʻlmasa-da, xomashyoga yoʻnaltirilganligi, yalpi ichki mahsuloti past va umumiy texnologik kechikishga ega boʻlishiga qaramay, bu mamlakatlarning bir qismi uglevodorod energiya zaxiralarining ulkan ombori boʻlib, jahon iqtisodiyotining yoqilgʻi-energetika ta'minoti jihatidan strategik ahamiyatga ega boʻlib qolmoqda [1].

Mustamlakachilikdan keyingi davr Fors koʻrfazidagi arab davlatlari va Markaziy Osiyoning yangi mustaqil respublikalari oʻrtasida rasmiy diplomatik aloqalar oʻrnatilganiga guvoh boʻldi. Savdo, energetika, ta'lim va madaniy almashinuv kabi turli sohalarda hamkorlikni rivojlantirish maqsadida diplomatik vakolatxonalar tashkil etildi, elchixonalar ochildi va ikki tomonlama kelishuvlar muzokara qilindi. Har ikki mintaqa yetakchilari mintaqaviy barqarorlik, iqtisodiy rivojlanish va xavfsizlik sohasidagi hamkorlikni mustahkamlash uchun diplomatik aloqalarni yoʻlga qoʻyish strategik ahamiyatini e'tirof etdi.

Fors koʻrfazi arab davlatlari rahbarlari sivilizatsiya va madaniy jihatdan musulmon davlarlarining bir qismi boʻlgan, aholisining asosiy qismi islom diniga e'tiqot qilivchi, Sobiq sovet davlati parchalagandan soʻng oʻz erkini qoʻlga kiritgan Markaziy Osiyo davlatlarining yangi mustaqillik maqomini tan olishni oʻzining burchi deb bildi. Oʻz navbatida Markaziy Osiyo respublikalari ham Islom hamkorlik tashkiloti safiga qoʻshilishdi va bu bilan islom madaniyati va uning qadriyatlariga sherik ekanliklarini amalda koʻrsatdilar . Shunday qilib, zamonaviy dunyo islomiy mamlakatlarning barcha xilma-xilligi

va siyosiy tarqoqligiga qaramasdan birlashishiga guvoh bo‘lmoqda, bu ham ularning transmintaqaviy o‘zaro ta’sirini rag‘batlantirmoqda. Fors ko‘rfazidagi arab mamlakatlari tomonidan Markaziy Osiyo davlatlari bilan siyosiy, savdo-iqtisodiy va boshqa aloqalarni o‘rnatish jarayonida o‘ziga xos birlashtiruvchi asosiy ta’moyillardan biri bu islom dini bo‘ldi [2].

XX asr oxiri va XXI asr boshlarida Fors ko‘rfazidagi arab davlatlari va Markaziy Osiyo respublikalari o‘rtasidagi diplomatik munosabatlar o‘zgaruvchan geosiyosiy dinamika, iqtisodiy imperativlar va xavfsizlik muammolariga javoban rivojlandi. Har ikki mintaqada ulkan energetika resurslarining topilishi va ishlatilishi diplomatik hamkorlikni yanada rag‘batlantirdi, chunki mamlakatlar iqtisodiy imkoniyatlardan foydalanishga hamda ikki va ko‘p tomonlama kelishuvlar orqali energiya xavfsizligini ta'minlashga intilmoqda.

Markaziy Osiyo mintaqasida katta energiya resurslari zahiralarining mavjudligi, bu ko‘rfaz arab davlatlarining moliyaviy investitsiyalar uchun yangi istiqbolli bozorlarni o‘zlashtirishdan manfaatdorligini oldindan belgilab berdi. Xususan Markaziy Osiyo respubliklarining tabiiy resurslari 1991-yil holatiga ko‘ra quyidagicha tahlil qilinadi. Shunday qilib, Qozog‘istonda "qora oltin"ning tasdiqlangan zaxiralari 3,9 milliard tonnani, tabiiy gaz - 1,3 trillion kubometrni tashkil qiladi. Tabiiy gazning ulkan konlari Turkmaniston va O‘zbekistonda to‘plangan - mos ravishda 24,3 trillion kub metr va 1,1 trillion kubometr. Mintaqa strategik mineral xomashyo – uran, oltin, polimetallar, temir rudalari va boshqalarga ham boy [3].

Diplomatik aloqalar boshlangan datslabki yillarda Fors ko‘rfazidagi arab davlatlari va MDH respublikalari o‘rtasidagi aloqlar rivojlanishi sekinlik bilan bo‘lsa-da, bu munoslatlarda savdo-iqtisodiy sohadagi hamkorlik e’tiborsiz qoldirilmoqda edi. Xususan Qozog‘iston va Fors ko‘rfazidagi arab davlatlari o‘rtasidagi munosabatlar tarixi so‘nggi bir necha o‘n yilliklar davomida sezilarli darajada rivojlanib, diplomatik aloqalar, iqtisodiy hamkorlik va madaniy almashinuvlar bilan tavsiflanadi. Tarixiy aloqalar geografik uzoqlik va turli geosiyosiy kontekstlar tufayli nisbatan cheklangan bo‘lsa-da, postsovet davrida diplomatik munosabatlarning o‘rnatilishi ikki tomonlama munosabatlarda yangi sahifaning boshlanishi bo‘ldi.

Arab davlatlari va Markaziy Osiyo respubliklari o‘rtasidagi aloqalarning rivojlanishi sekinlik bilan borishida ikkinchi bir sababi, Arab davlatlari Markaziy Osiyo respublikalari iqtisodiyotiga eksport va import munosabatlarida qoniqarli darajada bo‘la olmagani ya’ni mustaqillikning dastlabki yigirma yilida Markaziy Osiyo respublikalari qonunchiligida eksport va import munosabatlariga oid qonun loyihalari to‘laqonli talab darajasida emasligi. Natijada, ushbu mamlakatlar o‘rtasidagi tovar ayriboshlash hajmi juda past ko‘rsatkichni tashkil etgan[4].

Mustaqillikdan keyingi yillarda Markaziy Osiyo respublikalaridagi ichki va tashqi siyosat yo‘nalishidagi islohatlar xususan, ijtimoiy – iqtisodiy sohaga doir qonunlarning tahrir qilinishi natijasida, bu respublikalarning ichki va tashqi aloqlarining yaxshilanishiga olib keldi. Albatta bu rivojlanishlar Fors

koʻrfazi arab davlatlari va Markaziy Osiyo respublikalari oʻrtasidagi munosabatlarga ham oʻzining sezilarli ta'sirini koʻrsatdi. Buning amaldagi natijasi tarixda ilk bora ikki mintaqa davlatlari rahbarlarining 2023- yil 19-iyul kuni Markaziy Osiyo mamlakatlari va Koʻrfaz arab davlatlari hamkorlik kengashi yetakchilarining birinchi sammiti Saudiya Arabistonining Jidda shahrida boʻlib oʻtdi [5]. Ushbu sammitda prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev oʻz nutqida hozirgi vaziyatga baho berar ekan, mamlakatimiz yetakchisi bugungi xavf-xatarlarga qaramay, ikkala mintaqa ham tinchlik, barqarorlik va taraqqiyot makoni boʻlib kelayotganini ifoda qildi. Ayni paytda Markaziy Osiyo va Koʻrfaz davlatlari bir-birlariga ishonchli va uzoq muddatli hamkor sifatida koʻrilayotganini takidlab ushbu hamkorlikning asosiy 5 ta ustuvor yoʻnalishlarini taklif qildi [6].

Xulosa qilib aytadigan boʻlsak, Fors koʻrfazi arab davlatlari va Markaziy Osiyo respublikalari oʻrtasidagi aloqalar bugungi kunda yangi bosqichga koʻtarildi, deb ayta olamiz. Buning natijasida ikki mintaqa davlatlari iqtisodiy investitsiyaviy va ijtimoiy yutuqlari koʻlami kengayib bormoqda. Koʻrfaz arab davlatlari Markaziy Osiyo respublikalaridagi koʻplab yangi sohalarni rivojlantirish uchun koʻp sarmoyalar ajratmoqda. Bu esa oʻz navbatida Markaziy Osiyo respublikalarining rivojlanishiga turtki boʻlmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Разоков Ш. А. Установление и развитие дипломатических, социально-экономических и культурных взаимоотношений таджикистана с арабскими государствами персидского залива (1991-2011ГТ.)// Автореферат. Душанбе-2012.
2. *Косач Г.Г.* Первый зарубежный визит президента Туркменистана: Саудовская Аравия // Институт Ближнего Востока. URL: http://www.iimes.ru/?p=5690.
3. BP Statistical Review of World Energy, 2013. URL: http://www.bp.com/en/global/corporate/ about-bp/energy-economics/ statistical-review-of-world-energy.html.
4. Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 21.09.1996 yildagi 330-son. http://lex.uz//ru/docs/-475601.
5. https://www.iiss.org/online-analysis/online-analysis/2023/11/the-diplomatic-surge-between-the-gcc-and-central-asian-states/
6. https://president.uz/oz/lists/view/6493.

MUNDARIJA

So‘zboshi 3

MANBASHUNOSLIK, TIL VA ADABIYOT

J. Özlem Oktay Çerezci. WOMEN ACCORDING TO THE ART WORKS OF UZBEKISTAN GOKTURK PERIOD..... 5

Ismatova Nargiza Adxamovna. XIX ASR IKKINCHI YARMI – XX ASR BOSHLARI BUXORO AMIRLIGIDA VAQF SUBYEKTLARI HOLATI 12

Rahimov Komiljon Rahmatovich. XOJA ORIF REVGARIY VA UNING «ORIFNOMA» ASARI QO‘LYOZMA NUSXALARI HAQIDA 19

Usmonov Ibrohim Sobirovich. HAKIM TERMIZIYNING “AL-FURUQ” KITOBIDA QIYOS – FIQHIY DALILI BAYONI 32

To‘rayev Laziz Abdivali o‘g‘li. “RABI’ AL-ABROR” ASARINING TARKIBIY TUZILISHI VA UNING MANBALARI..... 38

Saishanhuli W. TRANSLATION AND STUDY OF THE LITERATURE OF ABAY IN CHINESE 50

Abdullaev Botirjon. ABU RAYHON BERUNIYNING “TAFHIM” ASARI NUSXALARINING TOSHKENT VA DUSHANBE FAKSIMIL NASHRLARI HAQIDA 63

Agzamova Muhabbatxon Mirtoxirovna. “AL-KOMIL FIT-TARIX” ASARINING MANBAVIY ASOSLARI 72

Axmatov Amonkeldi. BUXORO ADABIY MUHIITINI O‘RGANISh MANBALARI 76

Baqoyev Umidjon Shuhrat o‘g‘li. MUHAMMAD TOLIBNING “MATLAB UT-TOLIBIN” ASARI ASHTARXONIYLAR VA BOBURIYLAR SULOLASI DIPLOMATIK MUNOSABATLARINI O‘RGANISHDA MUHIM MANBA SIFATIDA 80

Burgutxonov Saidumarxon. IBN HAZM ANDALUSIYNING “AL-FISOL” ASARIDA ISLOMDAGI YO‘NALISH VA FIRQALARNING YORITILISHIDAGI O‘ZIGA XOSLIKLAR 84

Diniqulov Abror Gulboy o‘g‘li. SHART MAYLIDAGI ARAB MAQOLLARINI O‘ZBEK TILIGA TARJIMA QILISH USULLARI 89

Jumaniyazov Mansur Davlatbayevich. ZIYOVUDDIN MAKKIY XORAZMIYNING «KIFAYATU-N-NAHV FI ILMI-L-E’RĀB» ASARINING TARKIBI 93

Ismoilov Mas’udxon Maxdievich. XOJA MUHAMMAD PORSONING “TAHQIQOT” ASARIDA KALOM VA TASAVVUFNING NAZARIY MASALALARI UYG‘UNLIGI 108

Mirzayeva Maftuna Murodillo qizi. XVI-XVII ASRLARDAGI HUKM HUJJATLARINING STRUKTURAVIY JIHATLARI 114

Murodova Risolat Davron qizi. MUZEYLARDA AMALIY SAN’AT BUYUMLARINING KONSERVATSIYA VA RESTAVRATSIYA ASPEKTLARI 119

Nasirillayeva Nodirabegim Furqat qizi. BIBLIOGRAF OLIM ABDULLA NOSIROV VA UNING “BILKAT” ASARI HAQIDA 125
Oripov Davronbek. “O‘G‘UZNOMA“DAGI OYQOG‘ON OBRAZI VA UNING “KITABI DADAM QO‘RQUD”DAGI OBRAZLARGA TA’SIRI 129
Ravshanov Alijon. ZAMONAVIY MOLIYAVIY MASALALARGA BAG‘IShLANGAN FIQHIY ASARLAR TAHLILI 134
Samsakova Husniyaxon Xalxodjayeva. BOBOXONOVLAR SHAXSIY KUTUBXONASIDAGI QO‘LYOZMALARNING DASTLABKI TAHLILI 142
Sirojiddinova Maftuna Baxodirovna. ARABSHOHIYLAR SAROY DEVONIGA TEGISHLI QONUNChILIK AKTLARI (dastlabki tahlil natijalari) 147
Sulaymonova Hulkar Mo‘minjonovna. “AR-RASAIL” ASARINING GERMANIYA FONDLARIDA SAQLANAYATGAN QO‘LYOZMALARI XUSUSIDA 153
Umaraliyev Sherzodjon Abdulaxat o‘g‘li. SIROJUDDIN O‘SHIY “FATOVOI SIROJIYA” ASARIGA MUROJAAT ETGAN HANAFIY MAZHABI MANBALARI 159

TARIX VA TARIXSHUNOSLIK MASALALRI

Hulstine Matthew. CONVERGING NARRATIVES: THE SIGNIFICANCE OF ‘ALIMQUL’S FALL ..165
Azimov Xurshid. QADIMGI XITOY MANBALARIDA MARKAZIY OSIYO DAVLATLARINING JOYLASHUV “XARITASI” 171
Ahmedova Dilafruz. BUXORO AMIRLIGI DIPLOMATIK MUNOSABATLARINING “INSHO” MAJMUALARIDA YORITILISHI 175
Idiyev Akbar Avaz o‘g‘li. SHAYBONIYLAR DAVRI SIYOSIY JARAYONLARIDA ETNIK BIRLIKLARNING ARALASHUVIGA DOIR 180
Kamoliddinov Farrux Burxoniddin o‘g‘li. MARKAZIY OSIYO RESPUBLIKALARINI FORS KO‘RFAZI ARAB DAVLATLARI BILAN ALOQALARINING QAYTA BOSHLANISHI TARIXIGA NAZAR 185
Karimov Sherzod Shavkat o‘g‘li. TEMURIYLAR DAVLAT BOSHQARUVIDA XOJA MAJDUDDIN MUHAMMADNING TUTGAN O‘RNI 189
Karimova Miyassar Jamoldinovna. O‘RTA OSIYOLIK SAVDOGARLARNING SHARQ MAMLAKATLARI BILAN SAVDO ALOQALARI 196
Ostonov Jahongir Davlatovich. FRANSUZ SHARQSHUNOSI POL PELYONING ILMIY FAOLIYATIGA NAZAR 205
Pilipchuk Yaroslav Valentinovich. ГОСУДАРСТВЕННОСТЬ И ЭТНИЧНОСТЬ УСУНЕЙ 210
Tojiyev Doston Beknazar o‘g‘li. TURKIY DAVLATLAR TASHKILOTI DOIRASIDAGI HAMKORLIK: ILMIY-MADANIY HAMDA SIYOSIY SOHALAR MISOLIDA 216
Fayzullayev Farrux Eshqabulovich. UBAYDULLAXONNING MUHAMMAD SHAYBONIYXON YURISHLARIDA ISHTIROKI 223
Xayrullayeva Iroda Faxriddinovna. HIND XOTIN-QIZLAR TA’LIMI EVOLYUSIYASI (JAMMU VA KASHMIR MISOLIDA) 230

Xakimova Nigora. ZAMONAVIY TADQIQOTLARDA «MAHOSIN» ASARI O‘RGANILISHINING TAHLILI 237
Xusnutdinov Flipp Romanovich. МЕЖДУ ПОЭЗИЕЙ И ПОЛИТИКОЙ: ПОЧЕМУ ЛИДЕР ТУРКЕСТАНСКОЙ ДИАСПОРЫ В САУДОВСКОЙ АРАВИИ УПОДОБЛЯЛ СОВЕТСКОЕ ГОСУДАРСТВО СОВЕ? 242
Ermatova Mushtariy Abdulla qizi. QO‘QON XONLIGINI O‘RGANISHGA OID YANGICHA QARASH VA YONDASHUVLAR 248
Yakubov Qahramon Karimdjanovich. XIVA XONLIGI MADRASALARI TARIXINING ZAMONAVIY TARIXSHUNOSLIKDA YORITILISHI: YANGICHA YO‘NALISH VA YONDASHUVLAR 254
Qorayev Sherxon Po‘latxonovich. MANBALARDA BUXORO AMIRI ABDULAHADXON IJODI VA ADABIY KECHALARI TARIXI 262
G‘oyibnazarova Mahmuda O‘ktamjon qizi. “OYINA” JURNALIDA TURKISTONDAGI IQTISODIY MASALALARNING YORITILISHI 267
G‘ofurov Jasur Isaqovich. USTRUSHONA QISHLOQ MAKONLARINING ME’MORIY – QURILISH LOYIHASI VA USULLARI XUSUSIDA (V-VIII ASRLAR) 272
Abdupattaev Mo‘min Mirzo Murodjon o‘g‘li. MUHAMMAD IBN AHMAD XORAZMIYNING DINSHUNOSLIKKA OID QARASHLARI..... 278

«SHARQSHUNOSLIK SOHALARINI TADQIQ ETISHNING DOLZARB MASALALARI» MAVZUSIDA YOSH SHARQSHUNOSLARNING AKADEMIK UBAYDULLA KARIMOV NOMIDAGI XIX RESPUBLIKA ILMIY–AMALIY KONFERENSIYASI

TO‘PLAMI

Muharrir
Bunyod Pattayev

Badiiy muharrir
Murodillo Rahmonov

Musahhih
Jasur Qutbiddinov

Sahifalovchi
Doniyor Murodov

O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti Ilmiy kengashining 2024-yil 3-maydagi 5-sonli majlisi qarori asosida nashrga tavsiya etilgan.

Nashriyot litsenziyasi № 7538, 25.05.2022-y.
20.05.2023-yilda bosishga ruxsat etildi.
Qog‘oz bichimi 60x84 $^{1}/_{16}$. “Cambria” garniturasi.
Shartli bosma tabog‘i 20. Adadi: nusxa.
Buyurtma raqami №: 14-24.
O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi
“Fan” nashriyoti davlat korxonasida
nashrga tayyorlandi va chop etildi.
100047, Toshkent sh., Yahyo G‘ulomov ko‘chasi, 70-uy. Tel.:
+99899 7917555, +99871 2622154